

DARSLARDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Rixsiboyev Oybek Alisherovich

Guliston davlat universiteti Sirtqi bo'lim,

Masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Email: oybek.risxiboyev@mail.ru

Annatotsiya

Формирование креативной деятельности в процессе повышения квалификации учителя начального образования включает в себя постоянную совместную работу, эффективное использование информационных технологий, широкое использование цифровых программ в образовательном процессе, а также неустанную работу над собой.

Abstract.

Primary education includes the formation of creative activity in the process of professional development of the teacher, constant co-operation, productive use of information technologies, extensive use of digital programs in the educational process, as well as tireless work on its own.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologikozgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch - kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

Bugun kunda ko'plab o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, innovasion pedagogik va axborot texnologiyalar dars jarayonlarida bevosita qo'llanmoqda. Bu orqali o'qituvchi dars jarayonida kamroq energiya sarflab, ko'proq ma'lumot berish orqali samaradorlikka erishadi hamda o'quvchilar ko'zlari bilan ko'rishlari orqali ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida xotiralarida saqlab qoladilar. ¹

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va

¹ Rixsiboyev Oybek Alisherovich. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiyon texnologiyalarning o'rni. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8. uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 1414 bet.

tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o`z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyati niyanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta`siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya`ni harqanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativlik - bu bir vaqtning o`zida yangi va qadrli g`oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so`zidan olingan bo`lib, yaratish ma`nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiyida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, birnuqtaga turli yo`nalishdan yondashishni anglatadi.

Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog`liq. Axborot reproduktiv o`quv jarayonida muammo-ijodiy va ijodiy o`zgarishlar. Fikrlash rivojlanish jarayonlarini faollashtirish va tezlashtirish bo`yicha oslashtirilgan "Tezyutsion davolash muolajasi" pedagogika sohasida keng tarqaldi.²

Bu dunyoda o`qitishning yagona tizimi deyarli emas. Bu ijodkorlik usullari bo`yicha bolalar tomonidan o`zlashtirishning maqbul shakli tizimi bo`lgan ijodiy vazifalar tizimidir, chunki Bolalarning asosiy faoliyatining asosiy turi - bu o`yin, keyin barcha ijodiy vazifalar, shuningdek, muvaffaqiyatli ijodkorlik uchun ish olib boradigan ijodiy shaxsning sifatlari haqida umumlashtirilgan.

O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdagi sa`y harakatlaridan biri – bu pedagoglarning zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko`nikma, malaka va madaniyatga ega bo`lishlari ayniqsa boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarini yanada faolroq, ma`sulyatliroq bo`lish talab etilmoqda. Bu esa o`z-o`zidan, boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarini kreativ faoliyatini rivojlantirishda ualuksiz malaka oshirishlarni tashkil etishlar kiradi.³

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma`naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo`lgan bilimlarning ko`p qirrali ekanligida emas, balki yangi g`oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo`ladi. Ya`ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo`lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g`oyaning paydo bo`lishi asosiy shartdir.

² Nuraliyeva N. B. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TRIZ-TEKNIKASINI QO'LLANISHI | JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 | 79-80-betlar.

³ N.B. Nuraliyeva, Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuvorqali yangimuammolarni hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborotoqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur.

Bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish, ularga rioya qilishga o'rgatiladi.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda didaktik, ta'limiy, innovatsion o'yinlarning o'rni beqiyos.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishdag'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi va

kreativlik bilan bog‘liq holda uyg‘unlashadi. Ta’kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta’limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta’lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish, kreativlik, ya’ni ijodiy faolligini oshiradi, qiziqish uyg‘otadi. Qiziqish bor joyda esa ta’lim sifati yaxshilanadi.

Darslarda o‘quvchilarning qiziqishini, kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi didaktik ta’limiy o‘yinlardan misollar keltiramiz.

„Qofiyadosh so‘zlarni top“ didaktik o‘yini

Didaktik topshiriq: O‘quvchilarning fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

O‘yin qoidasi: O‘quvchi rasmlarga qarab qofiyadosh so‘zlarni topish kerak bo‘ladi va soat strelkalarini ularga yo‘naltiradi.

Masalan: qarmoq-barmoq, ayiq-qayiq, kapalak-kamalak, don-son

“Osh pishiramiz” ta’limiy, didaktik o‘yin

O‘yin maqsadi: matematik o‘yin o‘quvchilarning yanada chuqurroq bilim olishlarida, ularning fikrlash qobiliyatlarini, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga, topqirlik, ziyrakliklarini rivojlantirishga yordam beradi;

Tarbiyaviy ahamiyati: o‘quvchilarga o‘yin orqali umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimizni e‘zozlashga o‘rgatish,, mehmondo‘stlik, odob fazilatlarini tarbiyalash;

O‘yin qoidasi: bu o‘yinni kichik guruhlar bilan ishlashda darsni mustahkamlash qismida olib borilsa, bo‘ladi. O‘quvchilarga o‘yinni boshlashdan oldin o‘zbek xonadonlarining azaliy urf-odatlarini mehmondo‘stligi haqida suhbatlashib, mehmon kelganda milliy taomlarimizdan osh tortilishi haqida tushuncha beriladi. Shu sababli o‘yinqoidasi bo‘yicha o‘quvchilar uylariga mehmon kelganligini faraz qilib osh damlashadi. Dostkada osh masaliqlari bilan birga misollar yozilgan kartotekalar bo‘ladi. Har bir guruhdan o‘quvchilar chiqib, misollar javobini yechishadi. Qaysi guruh o‘quvchilari misollarni xatosiz yechsa bu guruhningoshi mazali va sifatli chiqadi.

Misollarni o‘qituvchi mavzularga moslashtirib olishi mumkin. Har bir guruh ishi tekshiriladi va mazali oshi dasturxonga tortiladi. Oshlar maketi ham tayyorlab qo‘yilishi lozim. Xatoga yo‘l qo‘yilsa, osh tuzsiz yoki yog‘ikam, guruch damini olmabdi deyilgan o‘qituvchi tomonidan jarimalar aytiladi. Oshni sifatli pishirgan guruh o‘quvchilari g‘olib hisoblanadi. Shu o‘yin oxirida o‘quvchilarga kreativ va tanqidiy fikrlash bo‘yicha savollar beriladi. Osh mazali bo‘lib pishishi uchun nimalar zarur? Oshni oshpaz pishirmasa ham mazali bo‘lish ehtimoli bormi? Nima uchun? Oshga solinadigan masaläiqlardan bittasi bo‘lmasa, osh pishadimi? kabi savollarga o‘quvchilar ijodiy yondashib tanqidiy fikrlashadi.

Kreativ fikrlashning yana bir muhim omillaridan biri hamkorlik. Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko`ra, guruh a`zolari maqsadli, opportunistik vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo`yadi va uning ro`yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a`zolari o`zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda yetakchilikni oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Madraximova Mastura, boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kreativlik faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari, Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: Nukus -2014.
2. Михеева, Елена Николаевна кандидат педагогических наук диссертация– 2002г. 24 ст.
3. Nuraliyeva N. B. Boshlang`ich ta`limda triz-texnikasini qo`llanishi | journal of new century innovations .Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Volume-7 79-80-betlar.
4. Rixsiboyev Oybek Alisherovich. Ta`lim jarayonida axborot kommunikatsiyon texnologiyalarning o`rni. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8. uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 1414 bet.
5. N.B. Nuraliyeva, Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264